

## O`RTA MAKTABDA KIMYO OQITISHDA ONLINE DARSLARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

**Nurqulova Vasila Yusufovna**

*1-toifali kimyo fani o`qituvchisi Qashqadaryo viloyati Muborak tumani 16-maktab*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kimyo sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonining mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va turlari, to'g'risidagi nazariyalar fikr va mulohazalar tahlil qilingan.*

**Kalitso'zlar:** *texnologiya masofadan o`qitish, elektron kutubxonalar, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar.*

### KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishilgandan keyin barcha sohalardagi kabi ta'lim tizimida ham jiddiy islohatlar amalga oshirildi ta'lim tizimida ham boshqa sohalar singari sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotganligi kun sayin yaqqol ko'rinib bormoqda. Turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotgatliligi ham quvonchli hol. Ko'pchilik internetdan asosan yangiliklar manbai sifatida, informatsiya qidirish, elektron pochtdan foydalanish sir emas. Informatsion texnologiyalarining imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Hozirgi kundas internet turli sohalarga tadbiiq qilindi. Internet texnologiyalar: masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va boshqalar.

### ASOSIY QISM

Shu boisdan bugungi kunda o'quvchilarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Aynan shu maqsadda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarining umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi raqamli texnologiyalar davrida ma'ruza darslarini taqdimotlardan foydalangan holda, chet el kimyogar olimlari yutuqlarini qayd etib, bugungi kun kimyo sohasi oldida turgan muammolarga alohida e'tibor qaratib, noan'anaviyinterfaol metodlar asosida, amalyot mashg'ulotlarini esa bugungi kun dunyo kimyogar olimlari hamda professor-o'qituvchilari tomonidan keng foydalanilayotgan aynan hozirgi mavjud epedimiologik vaziyatda masofaviy tarzda tashkil etilayotgan darslarda keng qo'llanilayotgan onlayn laboratoriya dasturlari asosida tashkil etish va o'tkazish talabalar uchun foydadan holi bo'lmaydi .Kimyo fanini o'qitish jarayonida interfaol

usullarning ahamiyati va o'рни benihoya kattadir. Kimyofani fundamental fanlardan bo'lgani uchun oliy ta'lim muassasalaritalabalarini bu fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, o'rganilayotgan fanni oson va chuqur o'zlashtirishlari uchun zaruriy mezon yaratish uslublari talabalarining butun dars jarayonidagi faolligini oshirish ustida o'ylashga olib keladi. Shu munosabat bilan o'qitishning yangi samarali uslublari hamda uslubiy tavsiyalar, uslubiy qo'llanmalarishlab chiqilmoqdaki, bular talabalarni fikrlash darajalarini faollashtiradi, shu bilan birga ularni mustaqil bilim olishlariga ko'mak beradi. Talabalarining o'z fikrlarinitashlash, diskussiya va muhokamalarda ishtirok etish, bir-biriga hamda pedagoglarga savollar berish, tengdoshlarining javoblarini muhokama qilish qo'yilayotgan masalalarni yechishda turli usullarni qo'llashga yordam beradi. Shu bilan birga talabalarda o'rganilayotgan mavzuni qabul qilish va eslab qolish, diqqatini jalb qilish va mantiqanfikrlashni jamlaydi .

O'qitish va tarbiyalashning zamonoviy va keng tarqalgano'qitish uslubikimyo darslaridagi yangi samarali usullar, ya'ni interaktiv usullarni (o'yinlarni) qo'llashdan iborat. Shu yo'sinda kichik guruhlardaishlash usullaridanfoydalanishmaqsadga muvofiqdir. Bularga aqliy hujum "aylana stol", "ruchka stol ustida, "galereya bo'yicha tur" va boshqa usullarnikeltirishmumkin. Bu o'yinlar talabalarda fikrni birjoygajamlash, mustaqil fikrlash, diqqatini jalb etish, tafakkurini rivojlantirishkabibilim olish uchun muhim omillarni shakllantiradi. Talabalar qiziqib o'zlari anglamagan holda yangilikni oson o'zlashtiradilar va eslab qoladilar. Har xil vaziyatlarda o'zlarini tutishnio'rganadilar. Hattoki engpassiv talabalar ham qo'yilgan masalagazo'r ishtiyoq bilan bor kuchini qaratib, o'z o'rtoqlarining yuzini yerga qaratmaslik uchun harakat qiladilar. Odatda talabalar bu usulda dars o'tilgan vaqtda diqqatlarini bir joyga to'plab oladilar, e'tiborli va intizomli bo'ladilar. Bunday usullar jiddiy o'qish bilan uzviy bog'lanib ketadi.

Jamiyatimizning rivojlangan davrida avvalgi metodik qo'llanmalar bilan cheklanib qolmasdan, unga fan-texnika yangiliklari, Internet vayuksak texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda, ta'lim jarayonini talabalar uchun yanada qiziqarli va mazmunli qilib o'tish maqsadga muvofiq. Respublikamizda bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va Internet tarmog'ini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shunga ko'ra, ta'lim tizimidagi o'quv yurtlarida informatika va yangi axborot texnologiyalari bilan birga kasb ta'lim yo'nalishiga tegishli fanlarining o'qitilishi ham davr talabi bo'lib qolmoqda. Masofadan o'qitish usulida o'qituvchi bilan talaba bir-biridan masofa bilan ajralgan bo'lsa ham, doimiy muloqot saqlanib qoladi. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson turmush tarzining barcha sohalarida ajralmas vositaga aylanib ulgurdi va bu soha asosida insoniyatning turmush tarzi yaxshilanishini inkor etib bo'lmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida jamiyat axborotlashuvi, jumladan ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish, insonlarning kasbiy faoliyatini yaxshilash va yengillashtirish, mamlakatda madaniy va ma'rifiy sohalarni jadal rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarga asos

bo`ladi. Ikkinchi ming yillik bo`sag`asida butun yer sharida fan-texnikaning rivojlanishi o`tgani asrga nisbatan bir necha barobar ortdi. Hozirgi kunga kelib, butun jahon sivilizatsiyasini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Dunyo miqyosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish jarayoni T.Edisonning elektronni kashf etishi, Rezerford tajribalari, yarim o`tkazgichlarning kashf etilishi bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining ilk bosqichlari butun dunyoda ommalasha boshladi. Ta`lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayoni bir qancha mamlakatlarda tatbiq etila boshlandi: jumladan 1970-80 yillarda Avstraliyada ta`lim jarayonini ommalashtirish maqsadida ta`lim tizimida radio texnologiyalaridan foydalanish joriy etilgan, ushbu sohada Yaponiya ta`lim tizimida ham bir qancha yutuqlarga erishilgan masalan: radioelektronika, kompyuter savodxonligi umumiy o`rta ta`lim dasturlariga kiritilgan .

Masofaviy o`qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya`ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog`liq. Masalan, an`anaviy bosma usuliga asoslangan o`qitish vositalari (o`quv qo`llanma, darsliklar) o`quvchilarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma`lum vaqt orasida o`zaro muloqotda bo`lishga, elektron pochta to`g`ri va teskari aloqa o`rnatishga, ya`ni xabarlarini jo`natish va qabul qilishga mo`ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma`ruzalar talabalarga ma`ruzalarni tinglash va ko`rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish o`quvchilarga o`zaro teskari aloqa orqali o`qitish imkonini beradi .

Kimyo fanini masofaviy ta`limda o`qitishda turli mutimediya ishlanmalari, organlarga xos ma`lumotlarni juftlab yozish, Venn diagrammsini to`ldirish, vaziyatli masalalar ishlash va mantiqiy savollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari kimyo fanini masofaviy o`qitishda mavzuga oid videolavhalardan foydalanish zarur. Masofaviy o`qitishda anogrammalardan va test savollarlaridan foydalanish o`quvchilar bilimini yanada oshiradi .

Masofaviy o`qitish barcha ta`lim olish istagi bo`lganlarga o`z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o`qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o`quv-uslubiy materiallarni o`zlashtiradi, nazoratdan o`tadi,

o`qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o`quv guruhi» o`quvchilari bilan muloqotda bo`ladi.

#### **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. A.S. Kucharov, G.Hakirova. o`quv qollanma . Toshkent, "Ibrat" 2001.
2. M.Azimjanova, T.Muradova. o`quv qollanma . Toshkent, "O`zbekiston"
3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlisi palatalarining qo`shma majlisidagi nutqi Sh.M. Mirziyoyev. Toshkent O`zbekiston, 2016. - 56 b.
5. www.ziyonet.uz - Axborot ta`lim portali.